

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'lqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliyana Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон угли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF STRENGTHENING THE FAMILY INSTITUTION – A CRITERION OF SOCIAL STABILITY OF FAMILY AND SOCIETY

Muxammadiyeva Oliya Narzullayevna

Associate Professor, Termiz State University of Engineering and Agrotechnologies,
Doctor of Philosophy (PhD)

E-mail: muxammadiyeva@bk.ru

Abstract. The article analyzes conceptual approaches to strengthening the family institution as a criterion for social stability. It examines the interconnection between family and society, the alignment of legal norms and moral values, as well as the relationship between state policy and spiritual stability in the development of the family institution based on scientific evidence. Through philosophical, axiological, and civilizational approaches, the strategic essence of the family phenomenon is revealed, highlighting its role in the spiritual, cultural, and social development of society. The article also discusses practical directions for strengthening the family institution, mechanisms for ensuring social stability, and the significance of state policy in this process. The findings demonstrate that the stability of the family institution is a crucial criterion for ensuring not only personal and familial well-being but also the social stability of society as a whole.

Keywords: family institution, social stability, legal foundations, moral values, concept, national identity, civilizational approach, interconnection.

OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI

Muxammadiyeva Oliya Narzullayevna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada oila institutini mustahkamlashga doir konseptual yondashuvlar ijtimoiy barqarorlik mezoni sifatida tizimli tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda oila va jamiyat o'rtasidagi uzviylik, huquqiy me'yorlar bilan axloqiy qadriyatlar uyg'unligi, shuningdek davlat siyosati, ma'naviy barqarorlik va milliy identitetning oila institutini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Falsafiy, aksiologik va sivilizatsiyaviy yondashuvlar asosida oila fenomenining strategik mohiyati ochib beriladi, uning jamiyatning ma'naviy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishidagi roli ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada oila institutini mustahkamlashning amaliy yo'nalishlari, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi mexanizmlar va davlat siyosatining ushbu jarayondagi ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari, oila institutining mustahkamligi nafaqat shaxsiy va oilaviy farovonlikni, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash uchun muhim mezon ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oila instituti, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy asoslar, axloqiy qadriyatlar, konsepsiya, milliy identitet, sivilizatsiyaviy yondashuv, uzviylik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N13>

Kirish. Oila – insoniyat jamiyatining eng asosiy va qadimiy instituti bo'lib, u shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila instituti nafaqat shaxsiy hayot va oilaviy farovonlikni ta'minlaydi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, madaniy an'analari va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy global va mahalliy sharoitlarda oila institutining mustahkamligi va uning jamiyat bilan uzviy bog'liqligi dolzarb masalaga aylanmoqda. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va milliy identitetning saqlanishi ko'pincha oilaning mustahkamligiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar oila institutiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Oiladagi qadriyatlar va an'analar me'yori, huquqiy va axloqiy normalar bilan uyg'un bo'lishi lozim. Shu bois, oila institutini mustahkamlash, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek davlat siyosati va ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida ko'riladi. Falsafiy, aksiologik va sivilizatsiyaviy yondashuvlar yordamida oila fenomenining strategik mohiyati aniqlanadi, uning jamiyat taraqqiyotidagi roli yoritiladi.

Ushbu maqola oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini ijtimoiy barqarorlik mezon sifatida tahlil qilgan holda, oilaning jamiyatdagi funksiyasi, davlat siyosati bilan bog'liqligi va milliy identitetni shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy asosda ochib beradi. Tadqiqot natijalari oilaning mustahkamligi nafaqat shaxsiy va oilaviy farovonlik, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash uchun muhim mezon ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Oila – insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, u jamiyatdagi uzviylik, barqarorlik, axloqiy nazorat va ijtimoiy meros uzatilishini ta'minlovchi madaniy-falsafiy negiz sifatida namoyon bo'ladi [2]. Bu institut nafaqat shaxsiy munosabatlar maydonidir, balki jamiyatda umumiy ijtimoiy ongning shakllanishi, milliy identitetning mustahkamlanishi va ma'naviy barqarorlikning asosi sifatida faoliyat yuritadi. Oila orqali shaxs jamiyatga kirib keladi, uni anglaydi, sotsializatsiyalanadi va o'zining ma'naviy-o'xshoviy mezonlarini shakllantiradi. Shu jihatdan oila institutini mustahkamlash jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta'minlovchi fundamental strategik yo'nalish sifatida qaralishi zarur [4].

So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida ro'y berayotgan geosiyosiy siljishlar, globallashtirish, raqamli kommunikatsiyalarning kuchayishi, iqtisodiy bosimlar va urbanizatsiya oqibatida oilaviy munosabatlar strukturaviy va qadriyat asosida muayyan o'zgarishlarga uchramoqda. Xususan, individuali turmush tarzining kuchayishi, nikoh institutining zaiflashuvi, nikohsiz birga yashashlar sonining ortishi, o'zaro mas'uliyatning pasayishi kabi holatlar klassik oilaviy modellarga nisbatan madaniy va ijtimoiy muvozanatni izdan chiqaruvchi omillarga aylanmoqda. Bunday sharoitda oila institutini nafaqat saqlab qolish, balki uni zamon ruhiga mos, barqaror va moslashuvchan tizim sifatida qayta tashkil etish zarurati yuzaga chiqmoqda [5].

Milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash jarayonida ham oila ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida strategik ahamiyat kasb etadi. U nafaqat demografik omil sifatida, balki ijtimoiy birdamlik, axloqiy nazorat, avlodlararo uzviylik va madaniy uzluksizlik kabi funksiyalarning bajaruvchisi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, davlat miqyosida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi alohida e'tiborni talab qiluvchi masalaga aylanmoqda. Huquqiy asoslarning takomillashuvi, ma'naviy-ma'rifiy muhitning sog'lomlashtirilishi, axborot makonidagi oilaga oid noto'g'ri tasavvurlarni bartaraf etish, gender muvozanatini saqlash kabi kompleks chora-tadbirlar jamiyat barqarorligi bilan bevosita bog'liq.

Mazkur yondashuv oilaning funksional va semantik ko'lamini aniqlash, uni institut sifatida barqaror jamiyat qurilishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida baholash imkonini

beradi. Uzoq muddatli istiqbolda oila va jamiyat orasidagi uzviylik, normativ-huquqiy bazaning qat'iyligi, ijtimoiy ongning oilaviy qadriyatlarga nisbatan munosabati – barqaror taraqqiyot strategiyasining mezonidir. Shu bois, oila institutini mustahkamlash masalasi har bir milliy jamiyatning sivilizatsiyaviy barqarorligini ta'minlaydigan markaziy konsepsiyaga aylanmog'i zarur [6].

Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi bugungi jamiyatlar taraqqiyotida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida nazarda tutiladi. Bu masalani chuqur tahlil qilish uchun biryoqlama statistik yoki huquqiy modelga emas, balki ko'p qatlamli, konseptual asoslangan metodologik yondashuvga tayanuv zarur. Normativ-huquqiy tizimlarning oila institutiga ta'siri, ma'naviy qadriyatlarning uzatilish mexanizmlari, oilaning sivilizatsiyaviy barqarorlikdagi funksiyasi va ularning zamonaviy kontekstda qayta talqin qilinishi izchil falsafiy-metodologik izlanishni talab etadi.

Bunday tahlil uchun metodologik asosi sifatida birinchidan, aksiologik yondashuv tanlanadi. Chunki oila nafaqat huquqiy birlik, balki jamiyat axloqiy strukturasi va ma'naviy ongining markaziy o'qi sifatida faoliyat yuritadi. Aksiologik mezonlar asosida oila qadriyatlari, avlodlararo uzviylik, nikoh etikasi, sadoqat, ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar ma'naviy barqarorlik negizini tashkil etadi.

Ikkinchidan, sivilizatsiyaviy tahlil yondashuvi qo'llanadi. Har bir jamiyatda oila institutining tashkil topishi, uning me'yoriy jihatdan shakllanishi va tarixiylik doirasidagi transformatsiyasi konkret sivilizatsiyaviy muhitga bog'liqdir. Sharqiy va G'arbiy madaniyatlarda oila haqidagi tasavvurlar, ularning konstitutsiyaviy va diniy asoslari o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, zamonaviy globalizatsiya sharoitida ularning o'zaro sintezini tahlil qilish mazkur yondashuv doirasiga kiradi. Bu oila institutining universallik va lokal xususiyatlari orasidagi muvozanatni aniqlash imkonini beradi [6].

Shuningdek, huquqiy-ontologik yondashuv orqali oilaning qonuniy asoslarda mustahkamlanishi va bu asoslarning ijtimoiy ongda qanday qabul qilinishini o'rganish nazarda tutiladi. Oila kodekslari, milliy strategiyalar, davlat siyosatining maqsadli hujjatlari va ularning jamiyatdagi real funktsionalligi ushbu metodologik yo'nalishning tahliliy obyektiga aylanadi. Normativlikning ijtimoiy hayotga tatbiq etilishi esa faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy-madaniy dinamikaga bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi.

Tahlil jarayonida falsafiy-hermenevtik yondashuv ham qo'llanadi. Bu uslub orqali oila haqida mavjud matnlar – diniy manbalar, qadimiy risolalar, klassik falsafa namunalariidagi oila konsepsiyasi, shuningdek zamonaviy huquqiy-normativ diskurslar falsafiy tafsirga tayanib o'rganiladi. Hermenevtik yondashuv ijtimoiy institut sifatidagi oilaning zamon va makon doirasidagi dinamik ma'nolarini ochib berishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mamlakatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va himoya qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Ushbu konsepsiya, oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini chuqur anglab, uni mustahkamlash orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishni maqsad qiladi [3].

Konsepsiyada belgilangan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Institutsional va huquqiy asoslarni takomillashtirish: Bu yo'nalish, oilani himoya qilish va qo'llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos yaratishni nazarda tutadi. Shuningdek, davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor o'rtasidagi

hamkorlikni kuchaytirish orqali oilaviy muammolarni hal etish samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan.

2. Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish: Zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini amaliyotga joriy etish orqali oilaviy muammolarning oldini olish va ularni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.
3. Demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligini oshirish: Oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, demografik o'sishni ta'minlash va oilaviy farovonlik darajasini oshirish orqali jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash maqsad qilingan.
4. Tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash: Oilaning tarbiyaviy va ta'limiy funksiyalarini kuchaytirish, an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash orqali jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash ko'zda tutilgan.
5. Metodik, konsultativ va amaliy yordam tizimini yaratish: Oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish orqali oilaviy muammolarni hal etish va ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish rejalashtirilgan.

Konsepsiyada, shuningdek, oilani mustahkamlash sohasidagi mavjud muammolar ham aniqlab berilgan. Ular orasida tegishli idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimining yetarli emasligi, ilmiy tadqiqotlarning amaliyotdan uzilib qolganligi, demografik o'zgarishlar va ajralishlar sonining ortishi, madaniy-tarixiy merosdan yetarlicha foydalanilmasligi, qonunchilik asoslarining mukammal emasligi va malakali mutaxassislar yetishmasligi kabi masalalar mavjud [4].

Xulosa. Oila instituti har qanday jamiyatda barqarorlik, ma'naviy yuksalish va sivilizatsiyaviy uzviylikni ta'minlaydigan asosiy tayanch sifatida qaralishi lozim. Uni mustahkamlash konsepsiyasi esa huquqiy tizim, ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash vositasi sifatida qadrlanadi. Normativ-huquqiy asoslarning takomillashuvi, qadriyatlar tizimining yangilanishi va madaniy merosning saqlanishi oilani nafaqat sotsial birlik, balki strategik sivilizatsion institut sifatida shakllantiradi. Konsepsiyaviy yondashuv shuni ko'rsatadiki, oilani ijtimoiy-falsafiy mezonlar asosida anglash, jamiyat barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023. – 64 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022. – 128 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
4. Ergasheva Z.R. Oilaning ijtimoiy vazifalari // Modern Education and Development. – 2025. – T. 20, №2. – B. 116–120.
5. Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilindi // Gazeta.uz. – 2018-yil 3-iyul. –
6. Qodirov A. Oila va jamiyat: ijtimoiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 240 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).